



**BAYROG'IMIZ KUNIGA BAG'ISHLANGAN O'ZBEK
MADANIYATI YANA BIR BOR EYNDHOVEN SHAHAR
FESTIVALIDA NAMOYISH ETILDI**

Gulbahor Anarbayevna Djalilova

“Vatandoshlar” jamoat fonding xorijdagi volontyori,
EcoGIS markazining jamoatchilik vontyori, TIQXMMI.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10212002>

ARTICLE INFO

Received: 21th November 2023
Accepted: 27th November 2023
Online: 28th November 2023

KEY WORDS

Xalqaro festival, bayroq kuni, turli xil millat vakillari, o'zbek madaniyati, vatandoshlar, o'zbek hunarmandlari, ko'rgazma.

ABSTRACT

Niderlandiya va Belgiya Qirolliklarida istiqomat qiluvchi O'zbekistonliklar Eyndhoven shahrida bo'lib o'tgan “Mid-autumn City Festival”da o'zbek xalqining ko'p asrlik madaniyatini yana bir bor namoyish qilishga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu xalqaro kuzgi festivalda vatandoshlar uchun ajratilgan joyda o'zbek hunarmandlarining qo'l mehnati namunalari, milliy libos va bosh kiyimlari hamda o'zbek adib va shoirlarining adabiyotlari ko'rgazmasi bo'ldi. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy raqslari tomosha qilinib, turli millat vakillari birgalikda davrada milliy musiqamizga raqsga tushishdi. Moviy, yashil, qizil va oq ranglar mujassamlangan milliy bayrogimiz baland ko'tarilib namoyish etildi. Bayrog'imizning 32 yilligi shahar festivaliga yigilgan niderlandiyalik va boshqa xalqlar orasida iliq kutib olindi. Festival tashkilotchilari - Eyndhoven municipaliteti va CLO fondi tomonidan ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirildi.

Kirish. O'zbek xalqi madaniyatining eng sevimli jihatlaridan biri bu hunarmandchilik hisoblanadi, hunarmandlar o'zlarining qo'l mehnati sir-asrorlari mana nechi asrlardan buyon avloddan-avlodga o'rgatib kelmoqda. Ularning mehnati san'atidan O'zbekistonga kelgan har qanday inson bahramand bo'lish imkoniyatiga egadir. Hunarmandlarning ijodi benazir, nafis va yuksak sifati bilan dunyoga mashhurdir. Shu sababdan ham Evropadagi vatandoshlar tomonidan 2023 yilgi Eyndhoven shahar festivalida o'zbek hunarmandlarining qo'l mehnati mahsuli ko'rgazmaga qo'yildi. Ayol va erkaklarning milliy liboslari, bosh kiyimlari ham ushbu ko'rgazmadan joy oldi. Shuningdek ekspozitsiyaga taqdim etilgan “XIX-XX asrlardagi milliy o'zbek bosh kiyimlari”, “O'zbekiston qahramonlari”, “O'zbekiston davlat san'at muzeyi”, “O'zbekistonga tashrif buyurish uchun 12 sabab”, “O'zbekiston - madaniy boyliklarini bo'yash tajribasi” kabi adabiyotlar san'atimizni ko'rishga kelgan xorijliklar nogihiga tushib, ko'pchilik mehmonlarda madaniyatimizga bo'lgan qiziqish yanada uyg'ondi.



O'zbekistonning 18 noyabr – Bayroq kuni munosabati bilan ushbu festivalda berilgan imkoniyatdan unumli foydalangan holda “Yalla” ansamblining “Bugun bayram” musiqasi ostidan bayrog'imiz shaharning “Muziekgebouw” binosi sahnasiga olib chiqilib, tashrif buyurgan 300 dan ortiq turli xil millat vakillariga namoyish qilindi.



Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf odatlarimiz va an'analarimizni, hunarmandchilik sirlari-yu o'zbekimga xos mehmondo'stlik va kattalarni hurmat qilishga asoslangan madaniyatimiz hamda moviy yashil oq va qizil ranglar mujassam bo'lgan bayrog'imiz xorijliklar nigohiga yaqqol tushib uylurdi. Ilk bor qatnashilgan bu xalqaro kuzgi festivalning dasturini ham vatandoshlar o'zbek madaniyatini ko'rsatish uchun birinchilar qatorida ochib berdi. Avval yig'ilgan mehmonlarga va ishtirokchilarga o'zbek madaniyati to'g'risida qisqacha ma'lumot berildi. So'ngra ayol va erkaklar milliy liboslari bosh kiyimlari bilan namoyish etilib, dasturxonlarga non va somsalardan tortiq qilindi.



Ma'lumki, o'zbek milliy raqslarida xalq madaniyatining nafosati va go'zalligi mujassamlangan. O'zbek xalqining barcha bayramlari raqs bilan o'tganligi sababli ushbu xalqaro shahar festivalida "Xorazm lazgisi" va "Andijon polkasi" musiqalari ostida vatandoshlar tomonidan yigilgan xorijliklarga qo'l imo-ishoralari va yuz mimikalariga e'tibor beriladigan milliy raqsimiz namoyish qilindi. Yig'ilganlarning barchasi o'zbek raqsini tomosha qilishib birgalikda raqsqa tushishdilar. Ushbu kuz faslida o'tkazilgan tadbir tufayli o'zbek milliy madaniyati va qadriyatlarini vatandoshlar tomonidan qisman bo'lsada turli millat xalqlariga yana bir bor ko'rsatib berildi.



O'tgan yilga bir nazar...

Niderlandiya Qirolligining Eindhoven shahriga turli davlatlardan kelib yashayotgan turli millatlarning madaniyatini ko'rsatib beruvchi "Mid-autumn city festival" deb nomlangan ushbu tadbir ikkinchi yil kuz faslida shaharda o'tkazilmoqda. Ushbu xalqaro festivalga shahar munisipaliteti (gemeente) qisman hamkorlik qiladi. Tadbirda CLO "Centro LatinoAmericano de Orientacion" fondi tomonidan tashkiliy ishlar olib borildi. Kuzda Meksikaliklar "O'lim kuni"ni, Amerikaliklar "Xellouin", Hindistonliklar "Divali" yoki Xitoyliklar "oy festivali" kabi bayramlarni nishonlaydilar. CLO fondining fikriga ko'ra "Kuzning turli xil ranglari ko'p madaniyatli Eyndxoven shahrining ramzi" hisoblanar ekan.



O'tgan 2022 yili 30 oktabr kuni kuzgi festivalda Perulik, Meksikalik, Ganalik va Venesuellaliklar qatnashgan edi. Tadbir shahardagi Madaniyat markazi (CKE - Centrum voor de Kunsten) binosida rang-barang musiqa, xalqaro raqs, marosimlar va xar xil taomlar tanavvuli bilan bo'lib o'tgan. Xalqaro festivalda qatnashish istagida bo'lgan turli millat vakillari va mehmonlar ko'pchilikni tashkil etganligi sababli bu yilgi tadbirni kengroq va shinam sahnasi mavjud joy Muziekgebouwda o'tkazishga kelishilib olindi. Shuni aytish joizki, joriy yildagi xalqaro madaniyatni ko'rsatib beruvchi festivalga O'zbekistonlik vatandoshlar "O'zbek madaniyati" bilan va Indiyaliklar "Divali" bayrami bilan ilk bor qatnashdilar. Dastur bo'yicha o'tgan safardagi kabi DJ Ineke Hurkmans dunyo bo'ylab kuz o'rtalarida o'tkaziladigan festivalga turli xil musiqasi bilan qatnashdi.



Indiyalik shoira Chaitali Ray Sengupta “The crossing” nomli kitob taqdimoti bilan ishtirok etdi. Bolgariyaliklarning “Kanatitsa” nomli jamoasi tomonidan folklyor raqsi namoyish etildi. “Columbia Eindhoven” raqs guruhi noodatiy raqslari orqali Kolumbiya madaniyatini targ'ib qildi. Ular mamlakatning turli mintaqalaridagi ritmlarni namoyish etdilar. Musiqa ritmini saqlab qolish uchun xalqaro musiqiy janrlarni talqin qilishda katta tajribaga ega bo'lgan Venesuelalik qo'shiqchilar tomonidan kontsert ham taqdim etildi.



Qolaversa, Indiya, Peru, Korea, Bolgariya va Meksikaliklar tomonidan tayyorlangan milliy taomlarni tanavvul qilishga muassar ham bo'ldi. Bolajonlar uchun ham qiziqarli o'yinlar hamda yuzga buyoqlarda rang beruvchi “sminken” tashkil qilindi. Xalqaro madaniyatni namoyish qilish uchun ajratilgan alohida joyda Meksika, Indiya, Peru, Bolgariya xalqlari qatorida bu safar o'zbek xalqining ham milliy kiyimlaridan torib hunarmandlarning qo'l mehnati namunalari, shuningdek tariximizni so'zlovchi adabiyotlar-yu dasturxonga tortilgan noz - ne'matlar barchani o'ziga jalb qildi. Chet ellik mehmonlar qiziqish bilan ko'rgazmaga qo'yilgan milliy loboslarni kiyib ko'rib fotosuratlariga tushishdi, ularning orasida avval O'zbekistonga tashrif buyurgan Perulik va Niderlandiyaliklar ham borligidan, vatanimiz to'g'risida iliq gaplar aytganidan xursand bo'ldik. Qiziqarlisi shundagi, ishtirokchilar ichida O'zbekiston nomli davlat mavjudli to'grisida hech qachon eshitmaganlari ham topildi. Ammo ular ko'rgazma yonidan ketmasdan turli savollar berib vatanimiz haqida ko'proq bilib olishga harakat qilishdi, biz vatanimiz bilan ularni tanishtirganimizdan bag'oyat mamnun bo'ldik.



Xulosa

Festivalga o'z hissasini qo'shgan va qo'llab-quvvatlagani uchun Eyndhoven shahar municipalitetiga va Muziekgebouw rahbariyatiga o'zbek vatandoshlari nomidan Brusseldagi elchixonamiz tomonidan minnatdorchilik bildirildi. Festival so'nggida dasturda ishtirok etgan san'atkorlarga, ko'rgazma va taqdimotlari bilan qatnashgan ishtirokchilarga alohida minnatdorchilik bildirildi CLO tomonidan esa o'z vatandoshlarini yig'ib madaniyatlarini turli xil millat vakillari bilan bo'lishishga tashabbuskorlik qilgan shaxslar va guruhlar yani Chaitali Sengupta, Sandra Luz, Ineke Hurkmans, Gulbahor Djalilova, Supriya Vij, Carola Eijssenring, Anindita Bhattcharya, Pallavi, Divya Yadav, Joyce Radese, Sandra Liliana, Cueva Cortez, Rodolfo Pacheco, Roxana Aguirre, San Pués hamda Bulgariya klubi, Hind Ateliyasi va Peru guruhi minnatdorchilik sertifikatlari bilan taqdirlandilar.

Ushbu xalqaro kuzgi shahar festivaliga yig'ilganlarning barchasi birgalikda kuylab, raqsga tushush imkoniyatiga ega bo'ldilar, CLO tashkilotining ko'ngillilari esa xalqaro atmosferaga ega bo'lgan do'stona va qiziqarli tadbirni o'tkazishda va barcha millatning kuz kunidan zavqlanishlari uchun qo'llaridan kelganlaricha xizmatda bo'ldilar.

References:

1. CLO ГОРОДСКОЙ ФЕСТИВАЛЬ СЕРЕДИНОЙ ОСЕНИ. Eindhoven news. <https://eindhovennews.com/event/72599/>
2. MID AUTUMN CITY FESTIVAL. Sprankelend festival waarbij de herfst gevierd wordt. <https://www.muziekgebouweindhoven.nl/nl/agenda/5767/sprankelend-festival-waarbij-de-herfst-gevierd-wordt/mid-autumn-city-festival>